


INKLUZIV TA'LIMDAN- INKLUZIV JAMIYATGA

**Dilnoza Axmedova Jo'rabyoyevna**


Namangan viloyati Chust tumani

Maktabgacha va maktab ta'limi

bo'limiga qarashli 29 –maktab amaliyotchi psixolog

Har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy
omil- muallim, uning tafakkur dunyosidir.**A.Disterveg**

Jamiyat taraqqiyoti bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib borar ekan ,bu jarayonda jamiyat a'zolarini roli ,isloxbatlar taraqqiyot jarayoniga ishonch-e'tiqodi muxim va xal qiluvchi axamiyat kasb etadi.Bu xar bir jamiyatning taraqqiyot jarayoniga xos bo'lgan xususiyatdir. Jamiyat oldiga qo'yilgan maqsadlarning ko'lami kengligi,va yuksak marralarni o'ziga qamrab olishi shaxsni faoliyatini yanada jadallashtirish va uni maqsadlar yo'lida safarbar qilishni davrning muxim masalalaridan biri sifatida qo'yadi Inson dunyo yuzini ko'ribdiki, o'zini inson sifatida anglabdiki, borliqni eng mukammal mavjudoti sifatida tanib keladi. Dunyo, inson, aql zakovat, ma'naviyat bular bir biri bilan chambarchas bog'liqdir. Inson dunyoga ma'lum bir maqsad bilan kelmaydi. U o'zligini idroq etgandan so'nggina xayotdan yashashdan ma'no istaydi. Inson xayotida ta'limni o'rni beqiyos.



Inkluziv ta'limdi bolalarning ta'lim olishi va kasb hunarga tayyorlashda ularning o'rtaqidagi to'siqlikni bartaraf etib ochiq ta'lim muxitini yaratishdan iborat.



Inkluziv –barcha uchun teng imkoniyat va qamrab olish ma'nolarini anglatib barcha fanlarda keng tarqalgan tushuncha bo'lib mazmuni esa turlicha ma'no anglatishi mumkin .Masalan agar inkluziv so'zini ta'limga nisbatan qo'llanilsa ,nogironligi bor yoshlar bilan nogironligi bo'limgan yoshlarning bir muxitda ya'ni to'siqsiz muxitda ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir.Agar inkluziv so'zi jamiyatga nisbatan qo'llanilsa jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtaida tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatini tenglashtirish ma'nosini anglatadi.Inkluziv so'zi siyosatda qo'llanilsa,tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlarda bir xilda munosabatda bo'lish kabi ma'nolarni anglatadi.

Inkluziv ta'limni joriy qilishda,yangi O'zbekiston davlati xam o'zining siyosiy, iqtisodiy,ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqib,ta'lim tizimini va mazmunini yangilash ,takomillashtirish jarayonida esa xalqimizning milliy qadryatlari, madaniyati urf-odatlari va an'analarini bolalar ongiga singdirish va ulardagи xususiy farqlarni ya'ni rivojlanishdagi ayrim nuqson darajalarini e'tiborga olgan xolda, nogironligi bor yoshlarni ta'lim tizimiga to'liq qamrab olishga imkon yaratadi. Inkluziv ta'lim tizimini joriy etish bo'yicha ilg'or tajribaga ega bo'lgan davlatlar bilan tajriba almashish va ta'lim tizimimizga qulay bo'lgan uslublarni qo'llash talab etadi.

Mamlakat ta'lim tarixida misli ko'rilmagan qadam sifatida ,mamlakatning barcha xududlarida 225 ta umumta'lim maktablar nogironligi bo'lgan bolalar uchun o'z eshiklarini ochadi.Prezidentimizning 2020 yil 13 oktyabrdagi 4860 –son qarori bilan tasdiqlangan .Xalq ta'limi tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirish, bundan tashqari inkluziv ta'lim guruxlarida va sinflarida xilma xillikni anglashda va xar bir inson kuchli va zaif tomonlariga ega ekanligini tushunishga yordam beradi. Nogironligi bo'lgan bolalarni ,ularni saloxiyatini to'liq rivojlantirish uchun qo'llab – quvvatlansa,jamiyat rivojiga katta xissa qo'sha oladi.Buni sport musabaqalari misolida ko'rishimiz mumkin.Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'limga kuchli e'tibor qaratmoqdalar.Shunday ekan biz pedagoglarni o'rni beqiyos.

Yurtimiz bugun jadal sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan, uni taraqqiyot bosqichiga ko'tarish, o'sib kelayotgan yosh avlodning qo'lida. Shunday ekan, o'z qarashlariga ega, mustaqil fikrlay oladigan, fikrlarini ijodiy, erkin bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalash biz o'qituvchilarning vazifasi sanaladi. Bu esa bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.



Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagoglari har bir darsda qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish darkor. Hozirgi zamон o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tomonlama qarash

vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi an`anaviy, samarali usullarni tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmg'i lozim. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda, inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan,bir qarashda arzimasdek tuyiladigan kichkina xabar xam axborot olamidagi glaballashuv shiddatidan kuch olib ko'zga ko'rinxmaydigan lekin ,zararini xech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch qudrat,qurolli kuchlar suv va havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma'naviy olamini daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib suyanib ish olib borishimiz kerak. Men hayotda ko'p bora o'z tasdig'ini topgan haqiqatdan kelib chiqqan holda, bu masalada shunday degan bo'lardim: Tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va xushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday taxidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzlucksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.